



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun'iy intellekt kompozit indeksi	159
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Stressni boshqarish va sog'lom hayot tarzi odatlari	163
Nargiza Muzafarovna Babaeva Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishida ta'lim va tajribaning ta'sir darajasi tahlili	167
Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фазилова Маркетинг инноваций как фактор динамичного роста отраслей экономики Узбекистана	172
Xilola Nematovna Ochilova Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo'llanilishi	176
Nigina Ma'rufovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o'g'li Hamrayev Sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta'siri	182
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo'llari	188
ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ	
Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Rahmonkul Hamidovich Djalilov Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
Olimjon G'ayrat o'g'li Fattoyev Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov G'azzoliy ta'lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishlari	220
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

6. Очилов И. Малый бизнес в сфере услуг. — Ташкент: Фан, 2021. — 210 с.
7. Каримова Д.М. Государственное регулирование сферы услуг. — Ташкент: Иктисодиёт, 2022. — 198 с.
8. Pyasovna A. S. YANGI O‘ZBEKISTON SHAROTIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 9-14.

<p style="text-align: center;">Sh.Artikova, D.Nasimov</p> <p style="text-align: center;">O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish: institutsional mexanizmlar, dinamika va istiqbollar</p> <p>Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznesning holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari keng qamrovli tahlil qilingan. Rasmiy statistik ma’lumotlar, iqtisodiy siyosat hujjatlari va zamonaviy akademik adabiyotlardan foydalangan holda, tadqiqotda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayish dinami-kasi va raqamli transformatsiyaning tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri o‘rganiladi. Sektordagi asosiy tendentsiyalarni aks ettiruvchi uchta statistik jadvaldan foydalangan holda analitik va qiyosiy tadqiqot metodologiyasi qo‘llanilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: kichik biznes, xizmat ko‘rsatish sohasi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, raqamlashtirish, ixtisoslashgan davlat muassasalari, O‘zbekiston, bandlik, tadbirkorlik.</p>	<p style="text-align: center;">Sh.Artikova, D.Nasimov</p> <p style="text-align: center;">Support and development of small business in the service sector in the Republic of Uzbekistan: institutional mechanisms, dynamics and prospects</p> <p>Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the status, challenges, and development prospects of small businesses in the service sector in Uzbekistan. Using official statistical data, economic policy documents, and contemporary academic literature, the study explores institutional mechanisms of state support, the dynamics of service sector expansion, and the impact of digital transformation on entrepreneurial activity. An analytical and comparative research methodology is employed, using three statistical tables reflecting key trends in the sector.</p> <p>Keywords: small business, service sector, state support, digitalization, specialized state institutions, Uzbekistan, employment, entrepreneurship.</p>
--	--

Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda – Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLOVCHI SUN’IY INTELEKT KOMPOZIT INDEKSI

<p>Annotatsiya. Maqola kichik biznes raqobatbardoshligini baholashning sun’iy intellekt kompozit indeksiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Kompozit indeks” (CAIC) ning diagnostika, integratsiya, intellektual tahlil, innovatsion rivojlanish va monitoring ko‘rsatkichlariga tafsilot berib, amaliy hisob-kitoblari keltirilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, sun’iy intellect, kompozit indeks, CAIC.</p>
--

Kirish. Hozirgi vaqtda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda sun’iy intellektning roli oshib bormoqda. Bunda sun’iy intellekt vositalari orqali kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi - bu SI asosidagi raqobatbardoshlik kompozit indeksini shakllantiruvchi ko‘p bosqichli tizimdir. Har bir bosqich o‘zaro tarmoqlashgan ta’sir mexanizmlari orqali kichik biznesning raqobat ustunligini kompleks tarzda muayyan SI indeks asosida o‘lchanadi. Bunday SI indeks adabiyotlarda umumiy kompozit indeks (Composite Index of AI Competitiveness – CAIC), deb nomlanadi. CAIC modelida har bir bosqich kichik biznesning raqobatbardoshlik kompozit indeksini (CAIC) shakllantiruvchi subindeks sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompozit indeks turli izlanuvchilar tomonidan o‘rganilgan. I.A.Makarov kompozit indeksni raqamli boshqarish uchun tadqiq etilgan [1]. D.A.Borzix, K.K.Furmanov. I.K.Chernisheva kompozit indekslarini yaratishning usullarini o‘rgangan [2]. H.Kim biznes ko‘rsatkichlarining kompozit indeksleri bo‘yicha siklik tahlilini o‘tkazilgan [3]. Geeho Jeon SI asrida raqobatbardoshlikni qiyosiy indeksga asoslanga qayta ko‘rib chiqish yo‘llarini tatqiq qilingan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot CAIC modeli asosida kvantitativ yondashuv orqali olib borildi. Indikatorlar bo‘yicha ma’lumotlar korxonalar hisobotlaridan yig‘ildi, normallashtirildi

va ekspert vaznlari bilan integrallashgan indeks hisoblandi, statistik tahlillar yordamida natijalar baholandi.

Tahlil va natijalar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’siri intellektual, innovatsion, integratsion, diagnostik va monitoring komponentlar orqali umumiy integrallashgan qiymatni quyidagi formula asosida hosil qiladi:

$$CAIC=w_1DI+w_2IN+w_3IT+w_4IR+w_5MT \quad (1)$$

Bu yerda DI – Diagnostika indeksi (Raqamli tayyorgarlik darajasi),

IN – Integratsiya indeksi (SI texnologiyalarining tatbiq darajasi)


IT – Intellektual tahlil indeksi (ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv samaradorligi),

IR – Innovatsion rivojlanish indeksi (yangi biznes modellarining joriy etilishi)

MT – Monitoring va takomillashtirish indeksi (barqarorlik va moslashuvchanlik), $w_1...w_5$ – har bir komponentning og‘irlik koeffitsientlari ($\Sigma w=1$).

Diagnostika bosqichi (DI) — korxonaning raqamli infratuzilmasi va kadrlar salohiyatiga asoslanib boshlang‘ich raqamli tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Bu CAIC ning **asosiy bazaviy komponenti** hisoblanadi. **Integratsiya bosqichi (IN)** — SI texnologiyalarining biznes jarayonlariga chuqur kiritilishi orqali CAIC o‘shishining **operatsion** omilini shakllantiradi. **Intellektual tahlil bosqichi (IT)** - ma’lumotlardan samarali foydalanish, prediktiv tahlil va qarorlarni avtomatlashtirish orqali CAICning **strategik subindeksini** oshiradi. **Innovatsion rivojlanish bosqichi (IR)** — yangi xizmat va mahsulot modellarini yaratish orqali **innovatsion subindeksni** mustahkamlaydi. **Monitoring va takomillashtirish bosqichi (MT)** — indikatorlarni doimiy yangilash orqali indeksning **barqarorlik koeffitsientini** ta’minlaydi (1-rasmga qarang).

CAIC - Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi (SI vositalari asosida)



1-rasm. Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi¹

1-rasmda besh yo‘nalish — diagnostika, integratsiya, intellektual tahlil, innovatsion rivojlanish va monitoring ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning har biri sun’iy intellekt texnologiyalarining biznesga ta’sirini ifodalaydi. Eng yuqori natija intellektual tahlil (0.85) yo‘nalishida kuzatilgan, bu SI asosida ma’lumotlardan samarali foydalanish va qaror qabul qilish jarayonlarining kuchliligini anglatadi. Integratsiya (0.80) va monitoring (0.82) ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘lib, bu texnologiyalarni amaliy joriy etish va natijalarni doimiy kuzatish samarali yo‘lga qo‘yilganini bildiradi. Shu tarzda diagramma kichik biznesning raqamli transformatsiya bosqichlarida SI vositalarining muhim rolini soddalashgan shaklda ko‘rsatadi.

SI vositalari asosida kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi kompozit indeks (CAIC) tasvirlangan. **Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi** - bu kichik korxonaning bozorda raqobat qilish qobiliyatini bir nechta muhim ko‘rsatkichlar asosida yagona sonli bahoga aylantiruvchi umumiy indeksdir. Ya’ni, bu indeks korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi, marketing faoliyati, moliyaviy boshqaruvi, innovatsion salohiyati va xavflarni boshqarish darajasi

¹ Manba: muallif ishlanmasi.

kabi omillarni birlashtirib, ularning umumiy ta’sirini ko’rsatadi. Natijada, mazkur indeks qanchalik yuqori bo’lsa, korxonaga shunchalik raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanayotgan hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi¹

Yo‘nalishlar	Ball (0–100)	Normallashtirilgan (0–1)	Og‘irlik W_i	Og‘irliklangan hissa	Ustuvorlik
Ishlab chiqarish	85	0.85	0.227	0.193	1
Marketing va savdo	80	0.80	0.213	0.171	2
Moliyaviy boshqaruv	75	0.75	0.200	0.150	3
Innovatsiyalar	70	0.70	0.187	0.131	4
Xavflarni boshqarish	65	0.65	0.173	0.113	5

Jadvaldagi besh yo‘nalish – ishlab chiqarish, marketing, moliyaviy boshqaruv, innovatsiyalar va xavflarni boshqarish – CAIC modelining amaliy komponentlari sifatida qaraladi. Ularning har biri sun’iy intellektning biznesdagi qo‘llanilish yo‘nalishiga mos keladi va normallashtirilgan ko‘rsatkich (0-1) hamda og‘irlik koeffitsienti (w_i) asosida umumiy indeksga ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish (0.85; $w=0.227$) – CAIC modelidagi intellektual tahlil va integratsiya bosqichlari bilan bevosita bog‘liq. SI texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ustuvorlikda birinchi o‘rinda turishi (1-o‘rin) bu yo‘nalishning eng kuchli raqobat ustunligini bildiradi. Marketing va savdo (0.80; $w=0.213$) – innovatsion rivojlanish va intellektual tahlil bosqichlarida aks etadi. SI asosidagi ma’lumot tahlili va mijoz xulqini prognozlash orqali bozorni tez anglash, reklama samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Moliyaviy boshqaruv (0.75; $w=0.200$) – monitoring va takomillashtirish bosqichida asosiy omil bo‘lib, SI orqali budget nazorati, xarajatlarni optimallashtirish va risklarni kamaytirish amalga oshiriladi. Innovatsiya (0.70; $w=0.187$) – innovatsion rivojlanish bosqichi bilan mos. Bu yo‘nalishda SI yangi biznes modellarini yaratish, xizmatlarni raqamlashtirish va mahsulotni bozorda farqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xavflarni boshqarish (0.65; $w=0.173$) – diagnostika va monitoring bosqichlariga tegishli bo‘lib, SI yordamida noaniqliklarni prognozlash, xavf ehtimolini kamaytirish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

CAIC modeli bo‘yicha og‘irliklangan hissalar yig‘indisi kichik biznesning raqobatbardoshlik darajasini integrallashgan tarzda quyidagicha ifodalaydi.

$$CAIC = \sum(w_i \times N_i) = 0.758 \quad (2)$$

ya’ni bu kichik biznesning umumiy raqamli raqobatbardoshlik darajasi 75,8% ni tashkil etadi, degan ma’noni bildiradi.

Jadval tahliliga ko‘ra, kichik biznes raqobatbardoshligining kompozit indeksi eng yuqori darajada ishlab chiqarish (0.85) va marketing – savdo (0.80) yo‘nalishlarida namoyon bo‘lgan bo‘lib, bu sohalarida sun’iy intellekt texnologiyalarining samarali qo‘llanilayotganini bildiradi. Moliyaviy boshqaruv (0.75) o‘rtacha natija ko‘rsatib, resurslardan foydalanish va xarajatlarni optimallashtirishda ijobiy tendensiyani ko‘rsatmoqda. Innovatsiyalar (0.70) hamda xavflarni boshqarish (0.65) yo‘nalishlari esa hali rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan segmentlar sifatida e’tiborni talab etadi. Umuman olganda, og‘irliklangan hissa hisob-kitobiga ko‘ra, kichik biznesning umumiy raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo‘lib, u taxminan 75-76 foiz samaradorlik ko‘rsatkichiga ega.

Kichik biznes raqobatbardoshligi kompozit indeksi (CAIC) ishlab chiqarish, marketing, moliyaviy boshqaruv, innovatsiya va xavflarni boshqarish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, SI texnologiyalarini strategik jalb etish – ushbu yo‘nalishlarning har birida samaradorlikni oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, CAICda eng yuqori bahoga ega “ishlab chiqarish” va “marketing” yo‘nalishlari SI yordamida avtomatlashtirish, mijoz tahlili va bozor prognozlari orqali raqobat ustunligini ta’minlaydi. Shu bois, SI integratsiyasi va shartnomaviy mexanizmlarni shakllantirish mintaqaviy raqamli iqtisodiyot rivojining obyektiv

¹Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

zarurati hisoblanadi.

SI texnologiyalarini strategik bosqichlarda joriy etish kichik biznesning CAIC ko'rsatkichlarini barqaror oshirish imkonini beradi. Bunda intellektual tahlil va innovatsion rivojlanish bosqichlarida to'plangan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish sifati yaxshilanadi, moliyaviy boshqaruv va xavf nazorati bosqichlarida esa resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi. Shartnomaviy mexanizmlar esa korxonalar o'rtasidagi texnologik hamkorlik, axborot almashish va intellektual mulk himoyasini kafolatlab, CAIC komponentlari o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlaydi.

SI jalb etishning strategik bosqichlari diagnostika, integratsiya, intellektual tahlil, innovatsion rivojlanish va monitoring - bu CAIC komponentlarini shakllantiruvchi amaliy bosqichlardir. Diagnostika bosqichi ishlab chiqarish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini o'lchasa, intellektual tahlil innovatsiya va marketing sohalariga tayanadi. Shartnomaviy mexanizm esa ushbu bosqichlarning har birini huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan ma'qullaydi. Mazkur mexanizm har bir strategik bosqich uchun CAIC subindekslari bilan bog'liq indikatorlar tizimi ishlab chiqiladi. Masalan:

- ishlab chiqarish:** SI asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari;
- marketing:** ma'lumotlar tahlili va mijozlar xulqini bashoratlash;
- moliyaviy boshqaruv:** SI risk-analitika va xarajat nazorati;
- innovatsiya:** yangi mahsulot va xizmat modellarini ishlab chiqish;
- xavflarni boshqarish:** SI asosida monitoring va signal tizimlari.

Shartnomaviy mexanizm ushbu yo'nalishlarda hamkorlik, litsenziya, xizmat ko'rsatish va intellektual mulk himoyasini tartibga soladi.

Xulosa va takliflar. SI jalb etish mexanizmi CAIC ni shakllantiruvchi barcha tarkibiy qismlarda barqaror o'sish va sinergiyani ta'minlaydi. Natijada kichik biznes raqamli transformatsiya bosqichidan strategik raqobat ustunligiga o'tadi. Bu esa nafaqat korxonada darajasida, balki mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsion o'sish potentsialini ham kuchaytiradi.

Shunday qilib, SI texnologiyalarini CAIC modeli asosida kichik biznes faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, risklarni kamaytirish, hamkorlikni mustahkamlash va innovatsion iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishdir. Shartnomaviy mexanizmlar esa bu jarayonning huquqiy, moliyaviy va institutsional barqarorligini ta'minlab, kichik biznes subyektlari uchun xavfsiz va samarali raqamli ekotizim yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Макаров И.А. Композитные индексы для управления цифровизацией: Методы формирования // Вопросы государственного и муниципального управления. 2024. № 3. С. 81–109. DOI: 10.17323/1999-5431-2024-0-3-81-109.
- 2.Борзых Д.А., Фурманов К.К., Чернышева И.К. О способе построения динамически сопоставимых композитных индексов // Вестник НГУЭУ. 2016. № 4. С. 67–83.
- 3.Kim, H. 2004. Cyclical Analysis on the Composite Indexes of Business Indicators. Journal of the Korean Official Statistics 9(1):29-52.
4. Ko, B. 2021. A Study on the Reorganization of Economic Composite Index in Jeju. The Journal of Humanities and Social Science 12(5):1215-1230. <https://doi.org/10.22143/HSS21.12.5.86>.
- 5.Geeho Jeon. Rethinking Competitiveness in the Age of AI: A Comparative Index-Based Approach // Journal of International Development. Vol. 37, Issue 7, October 2025. P: 1525-1542. <https://doi.org/10.1002/jid.70018>.

<p>Л.Наврўз-зода</p> <p>Композитный индекс искусственного интеллекта для оценки конкурентоспособности малого бизнеса</p> <p>Аннотация. Статья посвящена композитному индексу искусственного интеллекта оценки конкурентоспособности малого бизнеса и приведены практические расчеты «Композитного индекса» (CAIC), детализирующие показатели диагностики, интеграции, интеллектуального анализа, инновационного развития и мониторинга.</p> <p>Ключевые слова: малый бизнес, конкурентоспособность, искусственный интеллект, композитный индекс, CAIC.</p>	<p>L.Navruz-zoda</p> <p>Artificial intelligence composite index for evaluating small business competitiveness</p> <p>Abstract. The article is devoted to the artificial intelligence composite index of assessing the competitiveness of small business, and practical calculations of the “Composite Index” (CAIC) are given, detailing the indicators of diagnostics, integration, intellectual analysis, innovative development and monitoring.</p> <p>Keywords: small business, competitiveness, artificial intelligence, composite index, CAIC.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.